



"URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI

Z.SH.IBRAGIMOV
Y.A.DJUMANIYAZOVA
S.A.Allanazarova

Буйруқнинг 1-банди ижро учун
Муддат: 6 Dekabr 2024

Z.SH.IBRAGIMOV
Y.A.DJUMANIYAZOVA
S.A.Allanazarova
M.F.AXMEDOVA

Буйруқнинг 4-банди ижро учун
Муддат: 20 Dekabr 2024

№1/225
28 Noyabr 2024

Z.SH.IBRAGIMOV
Проректор





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I

2024 - yil « 22 » noyabr 441 -son

Toshkent shahri

**“Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e’lon qilingan eng yaxshi material”
tanlovini tashkil etish to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan yosh olim, ilmiy izlanuvchi va talabalar o‘rtasida har yili may-iyun oylarida “Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e’lon qilingan eng yaxshi material” tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etilsin va o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;

Tanlovni o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga;

Tanlov g‘oliblarini taqdirlash marosimi bilan bog‘liq xarajatlar smetasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (A.Akramov), Axborot xizmati (N.Abduqunduzova):

Tanlovni tashkil etish bilan bog‘liq barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirsin hamda nizom talablari asosida yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin;

Tanlov g‘oliblari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (Tashkiliy ishchi guruh va Hakamlar hay’ati bayonnomalari)ni Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etsin;

Tanlovda eng yaxshi deb topilgan materiallarni ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilish choralari ko‘rsin.

4. **Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlari** yosh olim, ilmiy izlanuvchi va talabalar o'rtasida tanlovning mazmun-mohiyatini targ'ib qilsin hamda 2025-yil yanvar oyidan boshlab ta'lim muassasalarining veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlarida tanlov haqida materiallar berib borsin.

5. **Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi** (J.Xalilov) Tanlovni yuqori saviyada tashkil etish hamda g'oliblarni taqdirlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni vazirlikning Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan Tanlov nizomi va 3-ilovaga muvofiq belgilangan tartibda qoplash choralarini ko'rsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Buzrukxonov zimmasiga yuklansin.

Vazir



K.Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**

"Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e'lon qilingan eng yaxshi material" tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom "Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e'lon qilingan eng yaxshi material" tanlovini (keyingi o'rinlarda – Tanlov) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e'lon qilinayotgan va yuqori professional darajada tayyorlangan eng yaxshi materiallarni aniqlash hamda ularning mualliflarini taqdirlash maqsadida tashkil etiladi.

3. Tanlov har yili may-iyun oylarida o'tkaziladi.

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ishtirokchi – tanlovda qatnashish uchun ariza bergan oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan 35 yoshgacha bo'lgan yosh olimlar, ilmiy izlanuvchilari va talabalar;

material – ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e'lon qilingan maqola, sharh va boshqa mahsulotlar (hammualliflikda e'lon qilingan materiallar bundan mustasno);

tashkilotchi – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi;

Tashkiliy ishchi guruh – tanlovni tashkil etish va o'tkazish, unda tanlov uchun taqdim etilgan materiallarni baholash mezonlarini va hakamlar hay'ati tarkibini tasdiqlash, g'oliblar hamda rag'batlantiruvchi o'rinlarni aniqlash, shuningdek tanlovni o'tkazish bilan bog'liq boshqa tashkiliy masalalarni hal qilish vazifalarini amalga oshiruvchi kollegial organ;

Hakamlar hay'ati – tanlov ishtirokchilarining arizalari bilan taqdim etilgan materiallarni baholovchi ekspertlar guruhi.

5. Tanlov ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda chop etilgan materiallar yo'nalishida o'tkaziladi.

6. Tashkiliy ishchi guruhning yig'ilishi zaruratga qarab, lekin bir yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

7. Hakamlar hay'ati tashkilotchilar, shuningdek, vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, oliy ta'lim tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, hamda ommaviy axborot vositalarining tajribali vakillaridan iborat tarkibda Tashkiliy ishchi guruh tomonidan tuziladi.

2-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

8. "Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e'lon qilingan eng yaxshi material" tanlovi ushbu Nizom ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq tashkil etiladi.

9. Tashkilotchilar har yili yanvar oyidan boshlab tanlovni o'tkazish haqidagi e'lonlarni o'z rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmog'dagi sahifalarida joylashtirib boradi.

10. Ishtirokchi har yili may oyining 1–10-sanalarida (10 kun muddatda) ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e'lon qilingan 1 ta materialni elektron yoki bevosita Tashkiliy ishchi guruhga tanlovda ishtirok etish uchun ariza bilan birga taqdim etadi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

tanlovga taqdim etilayotgan material va ularning qachon va qaysi ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e'lon qilinganligi haqidagi ma'lumot;

ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda chop etilgan materialning elektron (pdf) shakli.

11. Tashkiliy ishchi guruh tanlovga kelib tushgan materiallarni umumlashtiradi va baholash uchun Hakamlar hay'atiga taqdim etadi.

12. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar hamda boshqa intellektual mulk huquqlarining buzilishi, ushbu Nizomda belgilangan tartiblarga rioya qilmaslik bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, Tashkiliy ishchi guruh ishtirokchilarni tanlovda qatnashish imkoniyatidan mahrum qilish huquqiga ega, bu holat tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

13. Hakamlar hay'ati:

taqdim etilgan materiallarni har yili may oyining 11–30-sanasiga qadar (20 kun muddatda) Tashkiliy ishchi guruh tomonidan belgilanadigan talablar (mezonlar) asosida baholaydi;

har yili iyun oyining 5-sanasiga qadar baholash yakunlari bo'yicha g'olib deb topilgan mualliflarni aniqlaydi.

14. Tashkilotchilar har yili iyun oyining 20-sanasiga qadar tanlov g'oliblarini taqdirlaydi hamda ularning nomlarini o'z rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida e'lon qiladi.

15. Tanlovda ilmiy-ommabop materiallardan tashqari boshqa materiallar ishtirok etishi mumkin emas.

16. Topshirilgan materiallar so'nggi bir o'quv yili mobaynida birinchi marotaba e'lon qilingan bo'lishi zarur.

3-bob. Tashkilotchilar, Tashkiliy ishchi guruh va hakamlar hay'atining asosiy vazifalari

17. Tashkilotchilar:

tanlovni tashkil etadi va o'tkazadi;

Tashkiliy ishchi guruh faoliyatiga ko'maklashadi;

tanlov e'loni, jarayonlari va yakunlari haqidagi axborotlarni o'z rasmiy veb-sayti va Internet jahon axborot tarmog'idagi sahifalarida e'lon qilib boradi;

tanlov g'oliblarini rag'batlantiradi;

hakamlar hay'ati a'zolari homiylar mablag'lari hisobidan rag'batlantiriladi.

18. Tashkiliy ishchi guruh:

hakamlar hay'ati tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi, zaruratga ko'ra, hakamlar hay'ati tarkibiga o'zgartirishlar kiritadi;

noxolis yondashuv, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymaslik choralari ko'radi;

tanlov bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

g'oliblarni saralashda hakamlar hay'ati tomonidan adolatlilik, shaffoflik mezonlariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

tanlovga kelib tushgan materiallarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

tanlov ishtirokchilarining hakamlar hay'ati qarorlari ustidan shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

19. Hakamlar hay'ati:

materiallarni adolatlilik, shaffoflik mezonlariga rioya qilgan holda professional talablar asosida ko'rib chiqadi va baholaydi;

g'oliblarni aniqlaydi hamda tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtiradi;

noxolis yondashuv, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymaslik, natijalar e'lon qilingunga qadar uning sir saqlanishini ta'minlash choralari ko'radi.

4-bob. Tanlov g'oliblarini mukofotlash tartibi

20. Tanlov g'oliblari 1, 2 va 3-o'rinlar (bir nafardan) baholash mezonlari asosida aniqlash orqali belgilanadi.

21. G'oliblar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi (daromad solig'i bilan qo'shib hisoblangan) miqdorda pul mukofotlari va diplom bilan taqdirlanadi:

1-o'ringa – bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari miqdorida;

2-o'ringa – bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari miqdorida;

3-o'ringa – bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari miqdorida.

22. Tanlovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, homiylik mablag'lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

23. Tanlovga taqdim etilgan materiallar to'g'risidagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga ishtirokchi javobgar hisoblanadi.

24. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.



**“Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e’lon qilingan eng yaxshi material”
tanlovini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha Tashkiliy ishchi guruh
TARKIBI**

1. S.M. Buzrukxonov – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari,
Tashkiliy ishchi guruh raisi
2. O.M. Maxkamov – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari,
Tashkiliy ishchi guruh raisi o‘rinbosari
3. N.U. Abduqunduzova – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot
xizmati rahbari, *Tashkiliy ishchi guruh a’zosi*
4. S.I. Sanaqulov – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo‘lim
boshlig‘i, *Tashkiliy ishchi guruh a’zosi*
5. A.A. Akramov – Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish
markazi direktori, *Tashkiliy ishchi guruh a’zosi*
6. M.B. Turobov – Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish
markazi bosh mutaxassisi, *Tashkiliy ishchi guruh a’zosi*
7. M.E. Gapparova – Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish
markazi bo‘lim boshlig‘i, *Tashkiliy ishchi guruh kotibi*

Izoh: Tashkiliy ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda, ushbu lavozimga yangidan
tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan xodimlar Tashkiliy ishchi guruh
tarkibiga kiritiladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2024-yil "22" -noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
3-ilova



**“Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e’lon qilingan eng yaxshi material”
tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo’yicha xarajatlar smetasi**

T/r	Xarajat nomi	Miqdori	Narxi	Umumiy xarajat va manbasi
1.	Vaucher	3 ta	300 000	900 000 Vazirlikning oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg’armasi mablag’lari hisobidan
2.	Diplom qog’oz	3 ta	10 000	30 000 Vazirlikning oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg’armasi mablag’lari hisobidan
3.	Diplom ramka	3 ta	30 000	90 000 Vazirlikning oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg’armasi mablag’lari hisobidan
Jami xarajatlar				1 020 000

“Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e’lon qilingan eng yaxshi material” tanlovini tashkil etish va o’tkazish tartibi to’g’risida”gi nizomga ilova

**“Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e’lon qilingan eng yaxshi material”
tanlovini tashkil etish
SXEMASI**

Bosqich	Subyekt	Tadbirlar	Bajarish muddati
1-bosqich	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta’lim muassasalari	Tanlovni o’tkazish haqidagi e’lonni o’z rasmiy veb-sayti va internet jahon axborot tarmog’idagi sahifalarida joylashtiradi.	Har yili yanvar oyi
2-bosqich	Ishtirokchi Tashkiliy ishchi guruh	Ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarda e’lon qilingan 1 ta materialni Tashkiliy ishchi guruhga taqdim etadi. Tanlovga kelib tushgan materiallarni umumlashtiradi va baholash uchun Hakamlar hay’atiga taqdim etadi.	Har yili may oyining 1–10-sanalarida (10 kun muddatda)
3-bosqich	Hakamlar hay’ati	Tashkiliy ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan materiallarni belgilangan talablar asosida baholaydi.	Har yili may oyining 11–30-sanasiga qadar (20 kun muddatda)
4-bosqich	Hakamlar hay’ati	Baholash yakunlari bo’yicha g’olib deb topilgan faol mualliflarni aniqlaydi.	Har yili iyun oyining 5-sanasiga qadar
5-bosqich	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,	Tanlov g’oliblarini taqdirlaydi hamda ularning nomlarini o’z rasmiy veb-sayti va internet jahon axborot tarmog’idagi sahifalarida e’lon qiladi.	Har yili iyun oyining 20-sanasiga qadar